


TARIX

1. XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligi shimolda qaysi hudud bilan chegaradosh bo'lgan?
 - A) Qozoq juzlari yerlari bilan
 - B) Buxoro amirligi C) Eron
 - D) Kaspiy dengizi
2. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati markazlari bo'lgan shaharlarni aniqlang.
 - 1) Xo'jayli; 2) Qo'qon; 3) Xiva; 4) Qarshi
 - A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 2, 4
3. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida asosiy savdo yo'llari qayerga ko'chgan?
 - A) O'rtayer dengiziga B) Atlantika okeaniga
 - C) Tinch okeaniga D) Arabiston dengiziga
4. 1912-yilda tashkil topgan "Yosh Jazoir" partiyasi mustamlaka hukumat oldiga qanday talablarni qo'ygan edi?
 - 1) sud ishlarida jazoirliklar uchun "mahalliy kodeks" nomli kamsituvchi tartibni bekor qilish;
 - 2) chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlarga Jazoirni roziligini olish;
 - 3) soliq to'lashda jazoirliklar va yevropaliklarni tenglashtirish;
 - 4) xalq maorifini kengaytirish;
 - 5) jamiyatlar tuzish, majlislar o'tkazishga ruxsat berish;
 - 6) saylanadigan lavozimlarda arablar uchun o'rinlarni ko'paytirish;
 - 7) qonun oldida hammaning tengligi, shaxs va mulk daxlsizligini berish
 - A) 1, 2, 4, 7 B) 2, 3, 5, 6 C) 1, 3, 4, 6
 - D) 2, 4, 5, 7
5. Lotin Amerikasi mamlakatlarida diktatorlik rejimlariga qarshi kurashning faollashuvi 1979-yilda qaysi davlatda inqilob yuz berishiga olib keldi?
 - A) Meksika B) Nikaragua C) Chili
 - D) Kuba
6. Xatoiy taxallusi bilan ijod qilgan hukmdorni toping.
 - A) Ismoil I Safaviy B) Abbos I
 - C) Sulton Salim I D) Taxmasp II
7. Tarixiy-mantiqiy bog'liqlik (ketma-ketlik, moslik) to'g'ri berilgan javobni toping.
 - A) Mironshoh – Movarounnahr hukmdori – poytaxti Toshkent
 - B) Shohrux Mirzo – Xuroson hukmdori – poytaxti Hirot
 - C) Mirzo Ulug'bek – Eron hukmdori – poytaxti Bag'dod
 - D) Zahiriddin Muhammad Bobur – Mo'g'uliston hukmdori – poytaxti Tabriz
8. Quyidagi ma'lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini toping.


"1848-yilda Fransiya Prezidenti etib saylangan. U Fransiya'dagi ikkinchi imperiyaga asos solgan. Uning davrida mamlakat taraqqiyoti Buyuk Britaniya va Germaniyadan tobora orqada qola boshlagan".

 - A) Lui Filipp B) Karl X
 - C) Lyudovik XVIII D) Napoleon III
9. 2017-yil iyunda Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida ilk marta qatnashgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotining sammiti qaysi shaharda bo'lib o'tgan?
 - A) Bishkek B) Ashxobod C) Ostona
 - D) Dushanbe
10. Quyidagilarni tahlil qilib, nuqtalar o'rniga mantiqan mos keluvchi javobni toping.
 - 1) Xorun ar-Rashid – Abbosiylar sulolasi;
 - 2) Otton I – Saksoniyaliklar sulolasi;
 - 3) Xlodvig – ...
 - A) Karolinglar sulolasi B) Sayyidlar sulolasi
 - C) Ummaviylar sulolasi
 - D) Merovinglar sulolasi

11. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyer-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.



- a) mamlakatda piktografik yozuv shakllangan;
 b) matematikaga "nol"ni anglatuvchi belgini hindlardan ham avval kiritgan; c) kohinlar sayyoralarining Quyosh tevaragida aylanish vaqtini hisoblab chiqib, Quyosh va Oyning tutilishini oldindan aytib bera olganlar;
 d) Markaziy Amerikaning hozirgi Meksika hududida tashkil topgan; e) yer taqchil bo'lganligi sababli ko'l tagidan suv o'simliklari va unumdor loyni ko'tarib, sollarda "suzuvchi dalalar" yaratilgan; f) davlatni Oliy Inka boshqargan.
- A) I-c, f; II-b, e; III-a B) I-b, c; II-a, e; III-d
 C) I-a, e; II-b, c; III-d D) I-c, e; II-b, f; III-a
12. Qadimgi Xett podsholigi hozirgi qaysi davlat hududida vujudga kelgan?
 A) Eron B) Suriya C) Pokiston
 D) Turkiya
13. AQSh qaysi davlatning Panama kanalini qurayotgan va kasodga uchragan aksiyadorlik jamiyatining barcha aksiyalarini arzon-garovga sotib olgan?
 A) Fransiya B) Kolumbiya C) Germaniya
 D) Angliya
14. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 1, 6 B) 3, 5 C) 4, 6 D) 2, 5
15. 1929-yil yanvarda AQSh prezidentligiga saylangan shaxsni toping.
 A) Jorj Klemanso B) Franklin Ruzvelt
 C) Vudro Vilson D) Gerbert Guver

16. Quyidagilardan I jahon urushi vaqtida Usmonli davlati harbiy vaziri va bosh qo'mondoni bo'lgan shaxsni aniqlang.
 A) Jamol B) Niyozbey C) Anvar poshsho
 D) Tal'at
17. Quyidagilarni tahlil qilib, nuqtalar o'rniga mantiqan mos keluvchi javobni toping.
 IIk o'rta asrlarda Vizantiya:
 1) Falastin; 2) Bolqon yarimoroli; 3) Kichik Osiyo; 4) ...
 A) Daniya B) Hindiston C) Kavkaz
 D) Britaniya
18. Makedoniyalik Aleksandr Amudaryoning narigi tarafida yashovchi elatlarni nima maqsadda bo'ysundirmoqchi bo'ldi?
 A) Siyraklashib qolgan qo'shin tarkibini to'ldirish uchun
 B) Hindistonga yurish qilishdan oldin qo'shinlarining orqa tomonini xavfsizlantirish uchun
 C) Baqtriya satrapi Bess o'sha tarafga qochib unga qarshi qo'zg'olon ko'targani uchun
 D) Ahamoniylar hukmdori Doro III ni mag'lub etish uchun
19. Mamlakatimiz hududlarida quyidagi qaysi davlatlar qadimgi davrda vujudga kelgan?
 1) Kidariylar davlati; 2) Davan davlati;
 3) Qang' davlati; 4) Afrig'iylar davlati;
 5) Eftaliylar davlati; 6) Kushon davlati.
 A) 2, 3, 6 B) 2, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 5, 6
20. Quyida berilgan ma'lumotlar qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniqlang.
"U o'z lashkarlari bilan akasi Jaloliddin qarorgohini tark etdi. Akasiga hasadi qo'zg'ab, o'zi mustaqil davlat barpo etish va Jaloliddin kabi shuhrat qozonishni istadi. U Kirmon hokimi tomonidan qo'lga olinib, qatl etildi".
 A) G'iyosiddin Pirshoh
 B) Alouddin Qayqubod C) Ibn al-Asir
 D) Sharofulmulk
21. 2015-yil fevral oyida quyidagi qaysi davlatlar rahbarlari Minsk shahriga yig'ilib, harbiy mojaroni hal etish to'g'risida yangi kelishuv (Minsk-2) ni imzoladilar?
 1) Germaniya; 2) Buyuk Britaniya; 3) Fransiya;
 4) Belorussiya; 5) Rossiya; 6) Latviya; 7) Litva;
 8) Ukraina
 A) 1, 3, 5, 8 B) 2, 3, 4, 6 C) 1, 4, 5, 7
 D) 2, 6, 7, 8


22. 1858-1859-yillarda qaysi shahar qoraqalpoqlarning qo'zg'olon markaziga aylangan?
A) *Nukus* B) *Porsu* C) *Qo'ng'iro't*
D) *Chimboy*
23. Qoraqalpoq adabiyotining atoqli namoyandasi Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li hayoti va ijodi haqida asar yozgan mualliflarni aniqlang.
1) K.Sultonov; 2) A.Oripov; 3) I.Yusupov;
4) Ya.G'ulomov
A) 1, 4 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 3
24. 2008-yili bo'lib o'tgan saylovlarda AQSh prezidenti etib saylangan shaxsni toping.
A) *Bill Klinton* B) *Donald Tramp*
C) *Barak Obama* D) *kichik Jorj Bush*
25. Quyidagi qaysi ma'lumotlar podsho Filipp II haqida emas?
1) Qadimgi Makedoniya podshosi edi;
2) Hindistonda yunon-makedon qo'shinlariga qarshi kurashga sardorlik qildi; 3) mil. avv. IV asrda forslarga qarshi yunonlar bilan ittifoq tuzdi; 4) Qadimgi Fors davlatining Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan oxirgi shohining qo'shinlarini tor-mor keltirdi
A) 2, 3 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 1, 4
26. Quyidagilardan Buyuk Britaniyaga qarashli "oq koloniya"ni toping.
A) *Yangi Zelandiya* B) *Seylon oroli*
C) *Hindiston* D) *Afg'oniston*
27. "Rim tarixi" asari muallifini aniqlang.
A) *Arrian* B) *Kvint Kursiy Ruf* C) *Plutarx*
D) *Tit Liviy*

28. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan hududda yashagan qaysi qabila mil.avv. VIII asrda 12 ta shahar-davlat ittifoqini tuzgan?



- A) ligurlar B) gotlar C) finikiyaliklar D) etrusklar

29. 1908-yilda Eron shohiga aksilinqilobiy davlat to'ntarishini amalga oshirishga yordamlashgan davlatlar xaritada qaysi raqamlar ostida berilgan?



- A) 3, 6 B) 4, 5 C) 1, 2 D) 2, 3

30. Quyidagi jadvalda voqea va uning natijasi o'zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

№	Voqea	Natija
1.	1938 yilgi Myunxen kelishuvi	Chexoslovakiyaning Sudet viloyatini Germaniyaga berilishi
2.	2003-yilgi «Atirgullar inqilobi»	Gruziyada «yangi demokratlar»ning hokimiyatga kelishi
3.	Xitoyda 1351-yil boshlangan dehqonlar qo'zg'oloni	Yuan sulolasiga asos solinishi
4.	XVII asrdagi Angliya burjua inqilobi	Angliya qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlarning tez rivojlanishi va sanoat to'ntarishining boshlanishi
5.	Giksoslarning tor-mor etilishi va fir'avn Yaxmos tomonidan ularning Misrdan quvib chiqilishi	Misrda O'rta podsholikka asos solinishi

A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 4 C) 2, 3, 4 D) 2, 4, 5